

QO'SHMA GAPLARDA IYERARXIYA: TRANSFORMATSIYALASHGAN NOMINATIV BIRLIKLARDA MARKAZ VA QURSHOV MUNOSABATI

Mukhabbat KURBANOVA*

Dilobar SULAYMANOVA**

Rezyume: Ushbu maqolada markaz qurshovlilik munosabatining sintaktik sathda, xususan qo'shma gaplarda namoyon bo'lishi yoritiladi. Turkiy tillarda nutqiy gaplarning bitta nominativ birlikka transformatsiya etilishi va boshqa bir gap tarkibida bitta konstruktiv bo'lak yoki bitta konstruktiv bo'lakning kengaytiruvchisi mavqeyida kelishi hodisasi tahlilga tortiladi. O'zbek tili grammatikasiga xos bo'lgan sintaktik-struktur xususiyatlardan biri-gap bo'laklari ierarxiyasidagi transformatsiya jarayoni masalasi hamda pog'onali sintaktik tahlilda gap va so'z kengaytiruvchisining iyerxiyadagi maqomi oydinlashtiriladi. Gapning LSQda so'zlar bog'lashuvini tahlil qilish orqali aktantlarning gap qurilish sathidagi vaziyati aniqlashtiriladi, gapning til bosqichidagi lisoniy gap bo'laklari (tarkibiy qismlari) o'rtasidagi semantik, grammatik bog'lanish masalasi oydinlashtiriladi.

Kalit so'zlar: qo'shma gap, transformatsiya, LSQ, aktant, kengaygan birlikma (chegarali qurilma)

Hierarchy in Compound Sentences: Center and Subordinate Relationship in Transformed Nominative Units

Abstract: This article highlights the manifestation of the center-surrounding relationship at the syntactic level, especially in compound sentences. One of the syntactic-structural features characteristic of the grammar of the Uzbek language- The issue of the transformation process in the hierarchy of sentence fragments and the status of the sentence and word expander in the hierarchy are clarified in stepwise syntactic analysis. The phenomenon of the transformation of sentences into one nominative unit in Turkish languages and the occurrence of one constructive clause or an expander of one constructive clause in another sentence is analyzed. The position of the actants at the level of sentence construction is clarified by analyzing the connection of words in the LSQ of the sentence, the issue of semantic and grammatical connection between the parts (components) of the linguistic sentence at the language stage of the sentence is clarified.

Key Words: compound sentence, transformation, LSP, actant, extended compound.

Kirish

Ma'lumki, har qanday nutqiy faoliyat markazini inson omili tashkil etadi va u sezgi organlari orqali obyektiv borliqdagi olam unsurlarini umumlashtirgan holda ongda aks ettiradi va til belgilari orqali tinglovchiga uzatadi. Nutqiy faoliyatda so'zlash va tushunish, nutq hosil qilish va uni idrok etish jarayonlari almashinib turadi.

Har qanday lisoniy birlik shakl va ma'no birligidan iborat. Yuqori sath birligi bo'lgan sintaktik birliklar ham bundan mustasno emas. Shunday ekan, barcha lisoniy birliklarni bu ikki tomonning o'zaro qanday munosabatda ekanini o'rganish, ular o'rtasidagi muvofiq va nomuvofiq jihatlarni yoritish katta ahamiyatga ega (Asqarova, 1960: 66).

1. Turkologiyada Qo'shma Gaplarning O'rganilish Tarixi

O'zbek tilida qo'shma gap mavzusi 30-yillardan keyin ma'lum darajada yoritila boshlandi. Qo'shma gaplar o'rganilishining dastlabki bosqichida ushbu sintaktik birliklar haqidagi ma'lumotlar alohida tekshirish obyekti sifatida emas, balki maktab darsligi hajmidagina yoritildi. 1950 yillardan boshlab maxsus o'rganila boshlandi: ergash gaplarning ayrim turlari (Azizova, 1955; Asqarova, 1957; Asqarova, 1959), ergashgan qo'shma gaplar, bog'langan qo'shma gapning ayrim turlari va, umuman, qo'shma gap masalalari, uning turlariga doir bir qancha ishlar maydonga keldi (Asqarova, 1955).

Dastlabki bosqichda o'zbek tilida qo'shma gaplar masalasini hal qilishda rus tilshunosligi va turkologiyaga doir materiallar asosiy tayanch manbasi bo'ldi. Jumladan, bu davrlarda qo'shma gapga doir ma'lumotlar rus tilshunosligida ancha keng yoritilgan. A. M. Pepjovokiy, F. I. Buslaev, V. A. Bogorodidkiy, F. F. Fortunatov, A. A. Potebnya, A. A. Shayaxmatov, V. V. Vinogradov, S. I. Abakumov kabi olimlar qo'shma gapning tabiati, kelib chiqish yo'llari, qo'shma gapning turlari, qo'shma gap komponentlarini biriktiruvchi vositalar

* O'zbekistan Milliy universiteti, qurbonova2007@mail.ru.

** O'zbekistan Milliy universiteti, dilobar7796@gmail.com.

va boshqa asosiy masalalar bo'yicha ko'p qimmatli fikrlar berganlar. Bu ma'lumotlar turk tillarida, shu jumladan, o'zbek tilida qo'shma gaplar masalasini yoritishga katta hissa qo'shdi.

Shuningdek, XIX asrda va XX asr rus turkologlarining asarlarida turk tillari grammatik qurilishini o'rganishga doir ayrim ma'lumotlar beriladi. Jumladan, P. M. Melioranskiy, Mirza Iskandar Kazembek, oltoy tili grammatikasi mualliflari, N. F. Qatanov, N. I. Ashmarin va boshqalarning ilmiy ishlarida turk tillari grammatikasining ma'lum masalalari yoritilib, qo'shma gapga doir ma'lumotlar berib o'tilgan. Keyingi davrlarda turk tillarida qo'shma gaplarni o'rganish masalasiga bag'ishlangan ko'pgina ilmiy izlanishlar olib borildi. V. A. Gordlevskiy, N. K. Dmitriev, A. K. Borovkov, A. N. Kononov, N. A. Baskakov, I. A. Batmanov, V. M. Nasilov, A. P. Potseluevskiy, Ye. I. Ubryashva, Ye. V. Sevortyan, M. Sh. Shiraliev, N. T. Sauranboev, K. KSartboev, M. M. Gadjiev, N. Gadjieva kabi sovet-turkologlarining asarlarida turk tillaridagi qo'shma gaplar mavzusi, qo'shma gapning turlari, ergash gaplarning tasnifi kabi qator masalalar yoritildi (Asqarova, 1960).

2. O'zbek Tilshunosligida Qo'shma Gaplar Tadqiqi

O'zbek tilshunosligida qo'shma gaplar masalasining tadqiqi, asosan, 50-yillardan boshlabgina maxsus yoritila boshlandi. Tilshunos olim, o'zbek ilmiy grammatikasining asoschilaridan biri A. G'ulomovning "O'zbek tilida aniqlovchilar" nomli ilmiy ishida aniqlovchilar, ularning turlari va ifodalanishi, qisman aniqlovchi ergash gaplar haqida fikr yuritiladi. Xususan, ushbu ishda predikativ birikma shaklidagi quyidagi konstruksiyalar aniqlovchi ergash gap deb ko'rsatiladi :

- bosh kelishikdagi ot + sifat-dosh;
- egalik affiksini olgan otlar + bor, yo'q so'zlari;
- ot + sifat;
- ot+sanoq son kabi predikativli konstruksiyalar.

Turkiyshunos A. N. Kononovning "O'zbek tili grammatikasi" asarida qo'shma gapning turlari, shuningdek, ergash gapning bog'lovchi vositalar ishtirokiga ko'ra guruhlanishi masalasi yoritilgan. Bu asarda qo'shma gapning umumiy masalalariga doir ba'zi fikrlar boshqa bo'limlar bilan bog'lab beriladi. Ergashgan qo'shma gaplar bog'lovchili va bog'lovchisiz kabi asosiy guruhlarga ajratilib, ular orasida oraliq tip mavjud ekanligi ko'rsatiladi. H. G'oziev ham o'z maqolasida o'zbek tilidagi ergash gaplar sostavi, qo'shma gap hosil qiluvchi murakkab konstruksiyalar va unda yordamchilarning ishlatilishi kabi masalalarni o'zining «Hozirgi zamon o'zbek tilida ergashgan qo'shma gaplarning sostavi» nomli maqolasida yoritib o'tadi (G'oziyev, 1941). E. A. Grunina o'zining ergashgan qo'shma gaplar mavzusidagi dissertatsiyasida qo'shma gaplar masalasining sovet turkologiyasida yoritilishi, o'zbek tilida ergashgan qo'shma gapning o'rganilish tarixi, ergash gapning tabiati, ergash gapning bosh gapga bog'lanish usullari va ergashgan qo'shma gaplari klassifikatsiya qilish tamoyillarini bayon qiladi (Asqarova, 1955). E. A. Gruninaning fikricha, ega-kesim mavjud bo'lgan ergash gaplarda predikativlikni ko'rsatuvchi morfologik vosita qo'llanishi va qo'llanmasligidan qat'i nazar, unda predikativ aloqa bor, shuning uchun u ergash gap, shuningdek, ega-kesim munosabatini ifodalovchi morfologik ko'rsatkichning quyidagi ikki turi ergash gapdagi predikativlik munosabatini ko'rsatadi, deb hisoblaydi:

- shaxsli fe'llardagi shaxs qo'shimchalari;
- shaxssiz fe'llardagi egalik (xoslik) qo'shimchalari (Grunina, 1952)

Tilshunoslikda E. A. Gruninaning ushbu tadqiqot ishi o'zbek tilida qo'shma gaplar, ayniqsa, ergashgan qo'shma gaplar tabiatini har tomonlama yoritishga bag'ishlangan birinchi ish deb hisoblanadi. Chunki bu ish yuzaga kelgunga qadar qo'shma gaplar masalasi darslik hajmida yoki boshqa masalalar bilan bog'langan holda yo'l-yo'lakay yoki ergash gapning ayrim tiplari olib tekshirilar edi (Abdurahmonov, 1958).

3. Semantik Sintaksisda Qo‘shma Gaplar Talqini

Ma‘lumki, gap uchun muhim belgi kesimlik bo‘lib, qo‘shma gap bilan sodda gap orasidagi asosiy tafovut, birinchidan, ularning strukturasi ko‘ra bo‘lsa, ikkinchidan, ularni tashkil etuvchi qurilish materialining turlicligidir (Abdurahmonov, Xoliyorov va b., 1987). Sodda gap birgina konstruktiv yadrodan tashkil topgan bo‘ladi. Qo‘shma gapda esa bir-biri bilan organik holda bog‘langan bir necha konstruktiv markaz bo‘ladi. Shuningdek, sodda gap uchun so‘z yoki so‘zlar birikmasi qurilish materiali sanalsa, qo‘shma gap uchun sodda gaplar shu material vazifasini o‘taydi (Abdurahmonov G., Shoabdurahmonov Sh., 1976).

Turkiy tillarda ham qo‘shma gaplar, boshqa tillardagidek, ikki yo‘l bilan ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning birikuvidan va sodda gapda bir bo‘lakning grammatik jihatdan taraqqiy etishidan hosil bo‘lgan. Birinchi yo‘l bilan ko‘proq bog‘langan qo‘shma gaplar (ba‘zan ergashgan qo‘shma gapning ayrim turlari), keyingi usul bilan esa, ergashgan qo‘shma gaplar vujudga kelgan.

Aytib o‘tish joizki, qo‘shma gaplarni o‘rganish uzoq yillardan buyon amalga oshirilayotgan izlanishlar asosida takomillashib, bu izlanishlarning har bir bosqichida o‘zbek tilidagi, umuman turkiyshunoslikdagi qo‘shma gap nazariyalari, asosan, rus tilshunosligida shakllangan qo‘shma gap nazariyalari qolipida yaratilgan. Nafaqat qo‘shma gap, balki tildagi juda ko‘plab boshqa hodisalar talqinida ham ana shu yo‘l, ya‘ni rus tilshunosligi qolipidan foydalanish bir qadar an‘anaga aylangan (Mahmudov, Nurmonov va b., 1995: 95). Jahon tilshunosligi tarixida bunday hol bir necha bor kuzatilgan, xususan, qadimgi lotin tilshunosligining yunon tilshunosligidan nusxa olish asosida shakllanganligi ma‘lum. Tabiiyki, bunday yo‘l til hodisalarining muayyan tilning o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlarini to‘g‘ri va xolis tushunishga imkon bermaydi. Tilda, esa, xususan, uning sintaktik sathida gapning shakliy va mazmuniy tarkiblari o‘rtasidagi aloqa behad murakkab va ko‘pincha ziddiyatli bo‘lib, ular bir-birlari bilan to‘liq muvofiq kelmaydi, ko‘pincha mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik (asimetriya) mavjud bo‘ladi (Vinogradov, 1975).

Har qanday til birligi kabi gap, xususan, qo‘shma gap ham ikki tomonlama birlikdir, ya‘ni ifoda tomoni va mazmun tomoniga ega. Uzoq vaqtlar mobaynida qo‘shma gapning asosan ifoda va qisman mazmun tomonlari o‘rganildi. Keyingi yillarda tilshunoslikda gapning mazmun tomoniga, «semantika» deb yuritiladigan jihatga e‘tibor kuchaydi, mazmuniy (semantik) sintaksis yo‘nalish yuzaga keldi. A.Berdialievning tadqiqotlari ana shu yo‘nalishdagi o‘zbek tilshunosligidagi dastlabki ishlardandir (Berdialiyev, 1989).

4. Qo‘shma Gaplarda Iyerarxiya: Markaz Va Qurshov Munosabati

Qo‘shma gap- sodda gap bilan chambarchas aloqador bo‘lsa-da, undan grammatik asoslar soni, fikriy mundarija (asosiy axborot)ning sifat va miqdori nuqtayi nazaridan farqlanuvchi sintaktik butunlik. Struktur jihatdan sodda va qo‘shma gap o‘rtasidagi tafovut aniqki, kesimlik belgisi ularni farqlovchi asosiy mezon sanaladi.

Qo‘shma gap lisoniy birlik sifatida murakkab tabiatli bo‘lib, bu murakkablik uning lisoniy sathda tutgan o‘rni, tarkibidagi sodda gapning grammatik shakli va bog‘lovchi vositalari hamda mazmuniy munosabatining rang-barangligi bilan belgilanadi (Sayfullayev, Mengliyev, Qurbonov, Abuzalova, Boqiyeva, Yunusova, 2009: 395)

Qo‘shma gapning sintaktik qurilishi juda chuqur va har taraflama o‘rganilgan, shuningdek, sintaktik qurilish aniq ko‘rish mumkin bo‘lgan sath ekanligi bois qo‘shma gap qurilishini belgilash qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bunda qo‘shma gapni shakllantiruvchi komponentlar o‘rtasidagi munosabat va uning sintaktik ifodalanishini belgilashda mazkur munosabatni shakllantiruvchi mantiqiy-mazmuniy mexanizm va bu mexanizmning sintaktik tuzilishga nisbatlanishiga alohida e‘tibor berish lozim.

Ma‘lumki, qo‘shma gapning ma‘noviy va struktur tasnifi ko‘p holda o‘zaro farqlanadi. Formal sintaksis qo‘shma gap tasnifida ko‘p hollarda ularning nutqiy belgi-xususiyati, zohiriy

alomatiga tayanadi. Substantsial sintaksis tasnifi esa qo'shma gapning lisoniy mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Keyingi yillarda qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning qurilish qolipiga ko'ra tasnif keng qo'llanilmoqda. Qo'shma gaplar tasnifida ularning tarkibidagi sintaktik aloqa va munosabatlarni alohida hisobga olish lozim bo'ladi.

Sodda, uyushgan va qo'shma gaplarni farqlovchi asosiy belgi-[P_m] ning markaz va qurshov munosabatining tashkil topishida o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Chunki sodda gapning eng kichik qolipi sanalgan [WP_m]da o'z atrofiga gap kengaytiruvchilaridan iborat yagona markazni shakllantirsa, qo'shma gapda mos ravishda bunday markazlar (iyerarxiya daraxti) soni [P_m] soniga ekvivalent ravishda ikkidən boshlab cheksiz davom etishi mumkin:

$$[WP_m^1 + WP_m^2]$$

$$\downarrow$$

$$WP_m^1 + WP_m^2 + WP_m^3]$$

$$[WP_m^1 + WP_m^2 + WP_m^3 + \dots + WP_m^n]$$


Qo'shma gapning lisoniy-sintaktik qolipini tahlil qilish orqali uning voqelanish usullari turli ko'rsatkichlarga asoslanishini ko'rish mumkin:

1. Gapning fikriy mundarijasini ifodalovchi grammatik asoslar miqdoriga (ikki bosh bo'lakli yoki bir bosh bo'lakli ekanligiga)
 - a) bir subyekt qo'shma gapning har ikki qismi uchun umumiy bo'lgan qolip:



$$[WP_m^1 + WP_m^2]$$

- b) ikki subyektli qo'shma gapning lisoniy-sintaktik qolipi:



$$[WP_m^1 + WP_m^2]$$

- c) subyekt (ega) ifodalanmagan yoki noma'lum bo'lgan qismlardan tashkil topgan qo'shma gap qolipi:

$$d) [WP_m^1 + WP_m^2]$$

Har uchala holatda ham subyektning ifodalanish-ifodalanmasligi, bir yoki bir nechta ekanligi aktantlari gap kengaytiruvchilardan iborat bo'lgan markaz miqdoriga ta'sir qilmaydi, chunki ushbu markazlar soni subyekt emas, balki [P_m] lar miqdoriga ko'ra shakllanadi.

5. Transformatsiyalashgan Nominativ Birliklarda Markaz-Qurshovlilik

O'zbek tilida gap qurilishidagi eng kichik qolip [WP_m] sanaladi, shu bois nutqiy voqelikda W-leksik ma'no anglatuvchi qismi vazifasini lisoniy sintaktik qolipning voqelanish jarayonida sintaktik tabiati turli xil bo'lgan, biroq [WP_m] ni yuzaga keltira oladigan istalgan atov birlik bajarishi mumkin:

1. Nominativ birliklar (leksemalar)
2. Birikmalar (erkin va turg'un bog'lanishli birikmalar)
3. Kengaygan birikmalar (harakat nomi, ravishdosh, sifatoshli oborotlar)

(Mahmudov, 1984: 41)

O‘zbek tilining grammatikasiga xos bo‘lgan sintaktik-struktur xususiyatlardan biri gap bo‘laklari ierarxiyasidagi *transformatsiya* jarayonidir. Ta’kidlab o‘tish joizki, turkiy tillarda istalgan kattalikdagi nutqiy gap sifatdash, ravishdash va harakat nomlari orasida bitta nominativ birlikka transformatsiya etilishi va boshqa bir gap tarkibida bitta konstruktiv bo‘lak yoki bitta konstruktiv bo‘lakning kengaytiruvchisi mavqeyida kiritilishi mumkin (Qurbonova, 2001: 167). Turkiy tillarning ushbu tipologik xususiyati ilmiy tadqiqi turkolog olimi N. Z. Gadjiyeva, o‘zbek tilshunosligida J. Omonturdiyev, A. Mamatov, A. Nurmonov, N. Mahmudov, A. Berdialiyevlar nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu ilmiy tadqiqotlarda istalgan turdagi sodda va havola bo‘lakli qo‘shma gaplarda grammatik asoslar, xususan E va [Pm] qismlarini shakliy o‘zgartirish orqali yakka nominativ birlikka transformatsiya qilinishi, shuningdek, ushbu kengaygan birikmaning gapning konstruktiv bo‘lagi yoki boshqa konstruktiv bo‘lak kengaytiruvchisi (aktanti) bo‘lib kelishi mumkinligi haqidagi asosiy ma’lumotlar berib o‘tiladi. Buni quyidagi havola bo‘lakli qo‘shma va uning kengaygan birikmali (chegarali qurilma, ramochnaya konstruksiya) sodda gap varianti talqini orqali tahlil qilishimiz mumkin:

1.	Havola bo‘lakli qo‘shma gap	<i>Siz shu narsani esdan chiqarmangki, odam odam bilan uchrashadi, tog‘ tog‘ bilan uchrashmaydi. (Oybek)</i>
2.	kengaygan birikmali (chegarali qurilmali) sodda gap	<i>Siz odamning odam bilan uchrashishi, tog‘ning tog‘ bilan uchrashmasligini esdan chiqarmang.</i>


Yuqoridagi havola bo‘lakli qo‘shma gapdan bilishimiz mumkinki, ergash gap butunligicha bosh gap tarkibidagi ko‘rsatish olmoshiga havola qilingani bois sodda gapdagi “*odamning odam bilan uchrashishi, tog‘ning tog‘ bilan uchrashmasligini*” kengaygan harakat nomi bilan ifodalangan oborotni “*shuni*” ko‘rsatish olmoshiga almashtirish mumkin:

		[S]	[Obj]	[W]	[N]	[M]	[T]	[P]
1.	kengaygan birikmali (chegarali qurilmali) sodda gap	<i>Siz</i>	<u><i>odamning odam bilan uchrashishini, tog‘ning tog‘ bilan uchrashmasligini</i></u>	<i>esdan chiqar</i>	<i>-ma</i>	<i>-ng</i>	<i>-ng</i>	<i>-ng</i>
2.	Ko‘rsatish olmoshili sodda gap	<i>Siz</i>	<u><i>shuni</i></u>	<i>esdan chiqar</i>	<i>-ma</i>	<i>-ng</i>	<i>-ng</i>	<i>-ng</i>

Har ikkala sodda gap tahliliga e’tibor bersak, gapning konstruktiv bo‘laklari tahlilida farqli jihatlarning mavjud emasligiga guvoh bo‘lamiz. Biroq gaplarning yuza struktur elementlarining pog‘onaviy bog‘lanishdagi farq quyidagicha:

1-gapda gap kesimining leksik ma’no anglatuvchi qismiga bog‘langan “uchrashishi” va “uchrashmasligi” so‘z kengaytiruvchilari o‘z navbatida “odamning”, “odam bilan”; “tog‘ning”, “tog‘ bilan” aktantlariga markaz vazifasini bajargan va daraxtsimon pog‘onaviy bog‘lanisni yuzaga keltirgan.

Si z	odamning	odam bilan	uchrashishini	tog'ning	tog' bilan	uchrashmasligini	esdan chiqar	ma	ng
S	Attr ¹	Obj ³	Obj ¹	Attr ²	Obj ⁴	Obj ²	W	N	Pm



Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, kesimning gap bo'lagi emas, gapning o'zi ekanligi gap bo'lagi tobe munosabatda bo'lgan ikki sintaktik birlikning tobe vaziyatda turgan qismiga nisbatan belgilanishi bilan dalillanadi. Tobe qismning sintaktik pozitsiyasi aniq, hokim qismning sintaktik pozitsiyasi esa sintaktik aloqa zanjirining boshqa halqasi uchun tobe vaziyatdagi holatiga qarab belgilanadi. Ko'rinadiki, gap bo'lagining muhim belgisi tobe vaziyatda bo'lishdir. Bu nuqtayi nazardan kesim hech qachon tobe vaziyatda kelmaydi. U tobe vaziyatdagi sintaktik birliklar bilan kengayadi. Ergash gap vazifasida kelganda ham tobe vaziyatdagi so'z-shakllar bilan kengayadi. Bosh gapga tobe bo'lib kelishi esa farqli qonuniyat asosida izohlanadi. Shu bois L.Tenyer nazariyasi negizida bog'liqlik va tobelik yotadi. Bunga ko'ra, kesimga tobe bog'lanib, uning tarkibini kengaytiruvchi va mazmunini konkretlashtiruvchi a'zolar *yunktiv* va *translyativlar* (ba'zi adabiyotlarda aktantlar yoki argumentlar va sironstantlar) sanaladi. Bu nuqtayi nazaridan ega ham to'ldiruvchi va hollar singari aktantlar qatorida turadi, kesimning ega pozitsiyasidagi aktanti sanaladi.

Demak, ayni paytda uzluksiz ta'lim bo'g'ini – umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim darsliklarida kesimga berilgan: “Kesim gap markazi bo'lib, u tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiradi” (Qodirov va boshq., 2014: 57), “Gapni gap qilib shaklanishida muhim bo'lgan, uning mazmuniy va grammatik markazi hisoblanuvchi bo'lak – kesim”, “Kesimlik (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modal) ma'nosini ifoda etgan gapning markaziy bo'lagi”, “Kesim – tasdiq-inkor, zamon, modallik, shaxs-son ma'no va shakllariga ega bo'lgan so'z, gap markazini tashkil qiluvchi bo'lak” ta'riflarining nazariy asosida kesimning o'zbek tili gap qurilishida tutgan o'rni yotadi (Nurmonov va boshq., 2015: 468-470). Sodda va qo'shma gaplar lisoniy qurilishida bo'laklarning pog'onali o'rinlashuvi quyidagicha beriladi: Mantiqiy “subyekt + kesim” ning mohiyatan “ega+kesim” (gap tarkibiy qismlari orasidagi grammatik munosabatdan farqlanishi Arastu zamonidan hozirgacha tilshunoslar va mantiqshunoslar tomonidan e'tirof etib kelinadi. Uning mantiqiy atama va mantiqiy hodisa in'ikosi ekanligini ta'kidlagan holda aytish mumkinki, gapning mundarijasi

[Pm] dadir. [Pm] gap kesimini, ya'ni uning markazini grammatik jihatdan shakllantiruvchi kategoriyaning son-sanoqsiz nutqiy ko'rinishlari umumiy ramzidir: tasdiq-inkor, mayl-zamon, shaxs-son ma'nolari va qo'shimchalarining nutqiy, ma'noviy va moddiy rang-barangligiga bu ramz neytral sanaladi. [WPm] qolipidagi [W] va [Pm] kabi nisbatan mustaqil bo'lgan qismlar o'zaro faqat gap markazi mavqeyida kelgandagina birikadi. [W] esa gapda xilma-xil pozitsiyalarda kelishi mumkin. Undan farqli ravishda [Pm] har qanday atov birlik bilan bog'langanda unga potensial gap mavqeini beradi. Aytish joizki, [Pm] atov birligi vazifasida kela olmaydigan til birliklari (chunonchi, fonema, grammatik morfema va h.z.) bilan birika olmaydi. Bu esa [Pm] – ya'ni kesimlik ko'rsatkichi gapning negizini, asosini tashkil etishini anglatadi. So'z gapning qurilish ashyosi bo'lganligi sababli gap qurilishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etadi, ya'ni markaz sifatida o'z atrofida ma'lum bir leksemalarni birlashtirishi yoki kengaytiruvchi sifatida qurshov vazifasini bajarishi mumkin.

Ta'kidlash jozki, gapning LSQ yuzaga kelishida konstruktiv birliklarning qanday nominativ yoki struktur birliklar bilan ifodalanishi ahamiyatsiz. R. Sayfullayeva, M. Qurbonova, M. Abuzalova kabi formal-funksional yo'nalish tadqiqotchilarining ilmiy ishlarida keltirilganidek, [WPm] uchun relevant belgi bitta, u ham bo'lsa, atov birligi vazifasini bajara olishidir (Qurbonova, 2001: 169).

Xulosa

Ushbu maqola turkiy tillarda nutqiy gaplarning bitta nominativ birlikka transformatsiya etilishi va boshqa bir gap tarkibida bitta konstruktiv bo'lak yoki bitta konstruktiv bo'lakning kengaytiruvchisi mavqeyida kelishi hodisasi, shuningdek o'zbek tilshunosligining navbatdagi vazifasi bo'lgan gapning LSQida so'zlar bog'lashuvini kengroq tahlil qilish orqali aktantlarning gap qurilish sathidagi vaziyatini aniqlashtirish, gapning til bosqichidagi lisoniy gap bo'laklari o'rtasidagi semantik, grammatik bog'lanishni aniqlashtirishga yo'naltirilgan. Tilning lisoniy tizimidagi markaz qurshovlilik munosabatining sintaktik sathda voqelanishi, qo'shma gap tarkibiy qismlarida markaziy bo'lak- kesim (atov birlik[W]+kesimlik ko'rsatkichi [Pm])ni to'ldirishdagi o'rni; mutlaq hokim bo'lak-konstuent (kesim)ga bilvosita yoki bevosita bog'langan aktant (tobe bo'laklar)larning nisbiy pog'onali-iyerxik o'rinishuvi yoritilgan. Tilshunoslikdagi pog'onaviylik tamoyiliga asosan dastlabki bosqichda qurshov vazifasini bajargan bo'lak (jumladan, [Pm] bilan valentlik hosil qilgan gap kengaytiruvchisi yoki [W] atov birligiga tobelangan so'z kengaytiruvchisi) ning keyingi bosqichda mos ravishda so'z kengaytiruvchilari bilan kengayib markaz mavqeyida kelishini ochib berishga qaratilgan. O'zbek tili grammatikasiga xos bo'lgan sintaktik-struktur xususiyatlardan biri-gap bo'laklari ierarxiyasidagi transformatsiya jarayoni masalasi hamda qo'shma gapning pog'onali sintaktik tahlilida gap va so'z kengaytiruvchisining iyerxiyadagi maqomi oydinlashtirilgan.

KAYNAKÇA

- Azizova, G (1955), *O'zbek tilida shart va to'siqsiz ergash gaplar*, Toshkent.
- Asqarova, M (1955), *Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar*, "Sovet maktabi" jurnali, 11-son.
- Asqarova, M (1957), *Sabab va maqsad ergash gapli qo'shma gaplar*, "Toshkent Davlat pedagogika institutining ilmiy asarlari", IV kitob., Toshkent.
- Asqarova, M (1959), *Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar*, "Toshkent Davlat pedagogika institutining ilmiy asarlari", XII kitob, Toshkent.
- Asqarova, M (1960), *Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar*. Toshkent: O'zFA nashriyoti, 66-b.
- G'oziyev, H (1941), *Hozirgi zamon o'zbek tilida ergashgan qo'shma gaplarning sostavi*, UzFAN nashri, Toshkent.
- Grunina, A (1952), *Slojno-podchinennoye predlozheniye v sovremennom uzbekskom yazike*, kand. diss., MGU, 1952;

- Abdurahmonov, G' (1958), *Qo'shma gap sintaksisi asoslari*. Toshkent: O'zFA nashriyoti.
- Abdurahmonov, G'., Xoliyorov X. v.b. (1987), *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Sintaksis. -T.: O'qituvchi.
- Abdurahmonov G'., Shoabdurahmonov Sh (1976) *O'zbek tili grammatikasi*, II tom. Sintaksis.-T.
- Mahmudov N., Nurmonov A. v.b. (1995), *O'zbek tilining nazariy grammatikasi*. Sintaksis. -T.: O'qituvchi, 95-b.
- Vinogradov, V (1975), *Izbranniye trudi. Issledovaniya po russkoy grammatike*.-M.
- Berdialiyev, A (1989), *Ergash gapli qo'shma gap konstruksiyalarida semantik-signifikativ paradigmatika*.-T.
- Mahmudov, N (1984), *O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya*. -T.: O'qituvchi, 41-b.
- Qurbonova, M (2001), *O'zbek tilshunosligida formal-funksional yo'nalish va sodda gap qurilishining talqini: Filologiya fanlari doktori... dis.*-Toshkent, 167-169 b.
- Qodirov, M va boshqalar. (2014) *Ona tili 8-sinf uchun darslik*.- T.: Cho'lpon, 57-b.
- Nurmonov, A. va boshq. (2015). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining 3-kurs talabalari uchun darslik.-T.: "ILM ZIYO", 468-470-b.
- Sayfullayeva, R., Mengliyev, B., Qurbonova, M., Abuzalova, M., Boqiyeva, G., Yunusova, Z (2009), *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – T.: Fan va texnologiya , 395-b.